

PARLAMENT FAOLIYATIDA SIYOSIY PARTIYALARNING ISHTIROK ETISHI

Ko'charova Madina Shaydulla qizi

O'zbekiston milliy universiteti ,
Ijtimoiy fanlar fakulteti amaliy siyosatshunoslik yo'nalishi
2-bosqich magistranti
kucharovamadina@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida parlament saylovlari va siyosiy partiyalarning institutsional rivojlanish jarayonini kompleks ravishda tadqiq etadi. Tadqiqotda O'zbekistondagi parlament saylovlarining tarixiy bosqichlari, siyosiy partiyalarning shakllanish tendensiyalari, ularning davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni hamda xalqaro demokratik standartlarga moslashuv jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada mustaqillik davrida parlament saylovlarining evolyutsiyasi, siyosiy partiyalarning institutsional rivojlanishi, ularning saylov jarayonidagi ishtiroki va demokratik transformatsiya bosqichlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot O'zbekistondagi ko'p partiyali tizimning shakllanish xususiyatlarini, siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlari va ijtimoiy-siyosiy rolini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *Parlament saylovlar, siyosiy partiyalar, demokratik transformatsiya, saylov tizimi institutsional rivojlanish, siyosiy muloqot, ko'p partiyali tizim ,davlat boshqaruvi saylov qonunchiligi, siyosiy pluralizm.*

Annotation: *this article comprehensively studies the process of parliamentary elections and institutional development of political parties in the Republic of Uzbekistan. In the study, the historical stages of parliamentary elections in Uzbekistan, the formation trends of political parties, their place in the state administration system, and the process of adaptation to international*
SJIF: 5.051

democratic standards are analyzed from a scientific, theoretical and practical point of view. participation in the process and stages of democratic transformation are considered. The study reveals the characteristics of the formation of the multi-party system in Uzbekistan, the program goals and socio-political role of political parties.

Keywords: parliamentary elections, political parties, democratic transformation, electoral system, institutional development, political dialogue, multi-party system, state administration, electoral law, political pluralism.

Аннотация: в данной статье комплексно изучается процесс парламентских выборов и институциональное развитие политических партий в Республике Узбекистан. В исследовании с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются исторические этапы парламентских выборов в Узбекистане, тенденции формирования политических партий, их место в системе государственного управления, процесс адаптации к международным демократическим стандартам. Рассматриваются участие в процессе и этапы демократических преобразований. В исследовании раскрываются особенности становления многопартийной системы в Узбекистане, программные цели и общественно-политическая роль политических партий.

Ключевые слова: парламентские выборы, политические партии, демократические преобразования, избирательная система, институциональное развитие, политический диалог, многопартийная система, государственное управление, избирательное право, политический плюрализм

Kirish

O'zbekiston Respublikasida parlament saylovlari demokratik jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, siyosiy partiyalarning institutsional rivojlanish bosqichini ifodalaydi. O'zbekistonda demokratik jarayonlarning yangi bosqichi – 2024-yil parlament saylovining proporsional-majoriztar tizimga o'tishi siyosiy partiyalarning rolini tubdan o'zgartiradi.¹ Demokratik jamiyatning muhim institutsional elementlaridan biri bo'lgan siyosiy partiyalarning parlament faoliyatidagi roli va ahamiyati dolzarb ilmiy-nazariy muammolardan hisoblanadi. Ushbu maqolada parlament faoliyatida siyosiy partiyalarning institutsional mexanizmlari, funksiyalari va demokratik jarayonlardagi o'rni kompleks ravishda tadqiq etiladi.

Tadqiqotning maqsadi - siyosiy partiyalarning parlament institutida ijtimoiy-siyosiy muloqot va demokratik qaror qabul qilish jarayonlaridagi rolini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.² Shu jumladan, siyosiy partiyalarning parlament faoliyatidagi asosiy funksiyalari mavjuddir.

Siyosiy partiyalar parlament faoliyatida quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshiradi:

Birinchidan, qonun chiqaruvchilik funksiyasi:

- Qonun loyihalarini tayyorlash
- Qonunchilik jarayonida ishtirok etish
- Qonunlarni ekspertizadan o'tkazish

¹ Mirziyoyev Sh.M. Demokratik o'zgarishlar va fuqarolarning siyosiy faoligini oshirish strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent, 2024. - B. 12-14

Ikkinchidan, Siyosiy muloqot funksiyasi:

- Turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifodalash
- Jamiyatdagi ziddiyatlarni konstruktiv hal qilish

Uchinchidan esa, nazorat funksiyasi:

- Ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini nazorat qilish
- Davlat budjetini tahlil qilish
- Deputat so'rovlari va so'rovnomalari orqali hokimiyat institutlarining

shaffofligini ta'minlash eng muhim bir vazifalridan bir hisoblanadi.

Bundan tashqari, parlamentda siyosiy partiyalarning tashkiliy mexanizmlari ham katta bir ahamiyatga ega .

Parlament faoliyatida siyosiy partiyalarning asosiy tashkiliy mexanizmlari:

1. Fraksiyalar tuzilishi:

- Bir partiyaqa mansub deputatlarning birlashmasi
- Umumiy siyosiy maqsadlarni ifodalash
- Qonun chiqaruvchilik jarayonida umumiy munosabatni shakllantirish

2. Komitetlarda ishtirok:

- Turli soha komitetlarida partiya vakillarining ishtirok etishi
- Qonun loyihalarini chuqur tayyorlash
- Soha bo'yicha ekspert baholash

3. Deputatlik mandatlarini taqsimlash:

- Partiyalarning saylov tizimidagi o'rni
- Proporsional va aralash saylov tizimi
- Deputatlarning partiya dasturi asosida faoliyat ko'rsatishi³

³ Siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlari

O'zbekistonda siyosiy partiyalarning parlament faoliyatidagi ishtirok etishi davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi rolini oshirishning muhim omilidir. Partiyalar qonun chiqarish, nazorat va siyosiy kommunikatsiya funksiyalarini amalga oshirish orqali demokratik jarayonlarni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Dunyo mamlakatlari tajribasini tahlil qilganda, siyosiy partiyalarning parlament faoliyatidagi ro'li bir-biridan farq qiladi. Masalan, g'arbiy demokratik davlatlar kuchli partiya tizim va ko'p partiyali parlamentdan foydalanishadi.⁴ Siyosiy partiyalarning parlament faoliyatidagi ro'li quydagilardan iborat.

- Demokratik jarayonlarni institutsionalizatsiya qilish
- Jamiyatning siyosiy ishtirokchanligini oshirish
- Davlat boshqaruvi sifatini yaxshilash

Kelgusi istiqbollar:

- Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish
- Partiya ichki demokratiyasini mustahkamlash
- Fuqarolarning siyosiy jarayonlarga ishtirokini kengaytirish⁵

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, siyosiy tizimni modernizatsiya qilish va demokratik jarayonlarni rivojlantirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Parlament saylovlari va siyosiy partiyalar tizimi bu jarayonning muhim komponentlaridan biridir. O'zbekistonda parlament saylovlari aralash sistemaga asoslangan bo'lib, bu esa partiyalar orasida raqobatni oshirishga xizmat qiladi. Saylovlar o'tkazilishining tartibi va shartlari O'zbekiston

⁴ Powell B.G. "Elections as Instruments of Democracy" - New Haven, 2000

⁵ Putnam R.D. "Making Democracy Work" - Princeton, 1993

Konstitutsiyasi hamda Saylov Kodeksi bilan belgilanadi. Saylovlar odatda har besh yilda o'tkaziladi. O'tgan saylovlarda ishtirok etayotgan partiyalar va nomzodlarning ro'yxati rasmiy ravishda tasdiqlanadi. Saylovlarda xalqaro kuzatuvchilarning ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda bir nechta siyosiy partiya faoliyat yuritib kelmoqda bugungi kunda.. Ularning barchasi davlat tomonidan nazorat qilinishi va ma'lum darajada hukumatning manfaatlariga mos kelishi talab etiladi. Raqobat darajasi cheklangan bo'lishi mumkin, ko'plab partiyalar hukumatning asosiy siyosatini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa erkin raqobat muhitini kamaytiradi. O'zbekistonda yangi siyosiy partiyalar tashkil etish uchun ma'lum shartlar mavjud, ammo ularning faoliyatini boshlashi ko'pincha murakkab jarayonlarga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda parlament saylovlarining tarixiy bosqichlari⁶

1.1. Mustaqillikdan avvalgi davr (1990-1991)

- Birpartiya tizimi
- KPSS va undan tashqari partiyalarning minimal ishtiroki
- Demokratik institutlarning boshlang'ich shakllari

1.2. Birinchi demokratik saylovlar (1994-2004)

- Ko'p partiyali tizimga bosqichma-bosqich o'tish
- Siyosiy partiyalarning shakllantirish jarayoni
- Saylov qonunchiligini takomillashtirish

1.3. Zamonaviy davr saylovlari (2004-2024)

- Raqobatbardosh ko'p partiyali tizim shakllanishi
- Siyosiy partiyalarning institutsional qudratini oshirish
- Saylov qonunchiligini demokratlashtirish⁷

⁶ Saylov qonunchiliklari to'plami
SJIF: 5.051

2. Parlament saylovlarining asosiy xususiyatlari

2.1. Saylov tizimi

- Proporsional saylov tizimi
- Saylov okruglari bo'yicha mandatlarni taqsimlash
- Minimal saylov barasi (5% qoidasi)⁸

2.2. Siyosiy partiyalarning ishtirok etish mexanizmlari

- Saylov bloklar va koalitsiyalarni shakllantirish
- Partiya ro'yxatlari orqali deputatlik
- Saylov kompaniyalarini moliyalashtirish

3. O'zbekistonda siyosiy partiyalarning rivojlanish tendensiyalari

3.1. Partiya tizimining institutsionallashuvi

- 5 ta siyosiy partiyaning parlamentda vakilligi
- Har bir partiyaning maxsus yo'nalishi
- Partiyalarning dasturiy maqsadlari⁹

3.2. Partiyalarning asosiy yo'nalishlari

1. "O'zbekistan Xalq Demokratik Partiyasi"

- Ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya
- Iqtisodiy islohotlar
- Davlat boshqaruvi samaradorligi

2. "Milliy Tiklanish Demokratik Partiyasi"

- Ma'naviy-madaniy qiymatlar
- Milliy g'oya va umuminsoniy prinsiplar
- Ijtimoiy institutsional rivojlanish

⁷ Prezident nutuqlari va davlat dasturlarining tahlili, 2016-2024

⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

⁹ Siyosiy partiyaning dasturiy hujjatlari

3. "Adolat Sotsial-Demokratik Partiyasi"

- Ijtimoiy adolat
- Fuqarolarning ijtimoiy kafolatlanishi
- Ijtimoiy loyihalar

4. "Ekologik Partiyasi"

- Ekologik atrof- muhitni yaxshilash
- Yashilashtirish

5. "O'zbekiston Milliy Tiklanish Partiyasi"

- Milliy g'oya
- Konstitutsiyaviy qiymatlar
- Jamiyatni modernizatsiya qilish
- Demokratik prinsiplarni joriy etish
- Saylov jarayonining xalqaro kuzatuvchilari tomonidan baholash¹⁰

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda demokratik islohotlarni amalga oshirib, saylov jarayonlarini takomillashtirishga intilmoqda. Bu esa fuqarolar ishtirokini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu jumladan, yangi saylov tizimi O'zbekistonda demokratik jarayonlarning yanada chuqurroq rivojlanishiga xizmat qildi va siyosiy partiyalarning rolini sezilarli darajada oshirdi. 2024-yil parlament saylovining proporsional-majoritar tizimga o'tishi O'zbekistonda siyosiy partiyalarning rolini tubdan o'zgartirdi. Ushbu yangi tizim, partiyalarning parlamentdagi faoliyatini kengaytirdi, siyosiy raqobatni oshirdi, demokratik institutlarni mustahkamlad. O'zbekistonda parlament saylovlari va siyosiy

¹⁰Saylov jarayonining demokratik standartlarining ko'rsatkichlari
SJIF: 5.051

partiyalar tizimi hozirgi kunda rivojlanmoqda, ammo ko‘p jihatdan uning demokratikligi hali ham savol ostida qolmoqda. Siyosiy islohotlar davom ettirilsa ham, real o‘zgarishlar uchun kengroq erkinliklar va haqiqiy raqobat muhitini yaratish zarurati mavjuddir. Bu borada xalqaro tajribalarni o‘rganish va amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Tavsiya o‘rinida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, partiyalarning kadrlar zahirasini shakllantirish, saylov strategiyalarini takomillashtirish, partiyalararo konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, fuqarolarning siyosiy ta’limini kuchaytirish muhim omillardan biridir. Umuman olganda, O‘zbekistonda parlament saylovlari demokratik jarayonlarning rivojlanishi va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi uchun zaruriy shartdir. Bu jarayonda har bir fuqaroning ovozi muhim hisoblanadi va ularning faolligi mamlakat kelajagini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik o‘zgarishlar v afuqarolarning siyosiy faoligini oshirish strategiyasi//O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-Toshkent,2024.- B. 12-14.
2. Siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlari.
3. Powell B.G. "Elections as Instruments of Democracy" - New Haven, 2000.
4. Putnam R.D. "Making Democracy Work" - Princeton, 1993.
5. Saylov qonunchiliklari to‘plami.
6. Prezident nutuqlari va davlat dasturlarining tahlili, 2016-2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
8. Siyosiy partiyaning dasturiy hujjatlari.

9. Saylov jarayonining demokratik standartlarining
ko'rsatkichlari.